



Insoniy Fazilatlar Buyuk Mutafakkirlar Talqınında yoki Insoniy Fazilatlar Haqında Mulohazalar

Büyük Düşünürlerin Yorumlanmasında İnsan Nitelikleri veya İnsan Nitelikleri Üzerine Düşünceler

Usman QOSIMOV

ORCID: 0000-0002-2582-2065

DOI: 10.5281/zenodo.15767201

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Insoniyat tarixida axloqiy qadriyatlar va insoniy fazilatlar jamiyat taraqqiyotining muhim asosi bo'lib kelganligi, har bir davr va har bir jamiyat o'ziga xos qadriyatlarga ega bo'lsa-da, umumiy insoniy fazilatlar doimo qadrlanganligi, bular – halollik, adolat, mehr-oqibat, vijdon, sabr-toqat, kamtarlik, sadoqat kabi fazilatlar ekanligi ko'rsatilgan. Ushbu fazilatlar shaxsni komillikka yetaklaydi, jamiyatda sog'lom muhitni shakllantirishga xizmat qilishi tahlil qilinadi. Insoniy fazilatlar – bu nafaqat shaxsiy tarbiyaning mezoni, balki ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatlarning ham garovidir. Halollik – har qanday jamiyatda eng asosiy axloqiy qadriyat hisoblanadi. Halol inson doimo ishonchga sazovor bo'ladi, uning so'zi va amali bir-biriga mos bo'ladi. Shuningdek, adolatli bo'lish – har bir insondan talab etiladigan yuksak fazilatdir. Adolat mavjud bo'lgan joyda nizolar kam, taraqqiyot barqaror bo'ladi. Mehr-oqibat va insonparvarlik esa oila, qo'shnichilik va do'stlik munosabatlarning mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, bugungi kunda texnologiyalar rivojlanib, odamlar orasidagi real muloqot kamayib borayotgan bir paytda mehr va muruvvat kabi fazilatlarning ahamiyati yanada oshmoqda. Vijdon esa insonning ichki hakami bo'lib, har qanday vaziyatda to'g'ri yo'lni tanlashga ko'maklashadi. Yosh avlod tarbiyasida insoniy fazilatlar alohida o'rin tutishi tahlil etiladi. Maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichlarda ushbu qadriyatlarni singdirish, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, o'qituvchi va ota-onalarning shaxsiy namunasi bu borada hal qiluvchi ahamiyatga ega. Zero, insoniy fazilatlar og'zaki emas, amaliy namuna orqali yosh avlod ongiga singishi tadqiq etiladi.

Kalit So'zlar: Insoniy fazilat, komil inson, hadislar, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, adolat, halollik, inson tafakkuri, Konfutsiy, odamiylik.

ONSOZ

Bu makale, insanlık tarihinde ahlaki değerlerin ve insani niteliklerin toplumun gelişmesi için önemli bir temel hâline geldiğini, her çağın ve her toplumun kendi değerlerine sahip olduğunu, ortak insani niteliklere her zaman değer verildiğini, bunların dürüstlük, adalet, nezaket, vicdan, sabır gibi nitelikler olduğunu göstermektedir. Bu nitelikler bireyi mükemmelliğe götürür, toplumda sağlıklı bir ortam oluşturmaya hizmet etmek için analiz edilir. İnsan nitelikleri sadece kişisel yetiştirmeye için bir kriter değil aynı zamanda sosyal yaşamda başarının garantisidir. Dürüstlük, herhangi bir toplumdaki en temel ahlaki değerdir. Dürüst bir insana her zaman güvenilecek, sözü ve eylemi birbiriyle uyumlu olacaktır. Ayrıca adil olmak, her insanın ihtiyaç duyduğu yüksek bir kalitedir. Adaletin olduğu yerde çok az çatışma vardır, ilerleme istikrarlıdır. Nezaket ve insanlık ise aile, mahalle ve arkadaşlık ilişkisini güçlendirmeye hizmet eder. Özellikle günümüzde teknolojilerin geliştiği ve insanlar arasındaki gerçek iletişim azaldığı bir dönemde nezaket ve nezaket gibi niteliklerin önemi daha da artmaktadır. Öte yandan vicdan, bir kişinin içsel yargıcıdır ve her durumda doğru yolu seçmeye yardımcı olur. Genç neslin yetiştirmesinde, insan niteliklerinin özel bir yer tuttuğu analiz edilir. Bu değerlerin okul öncesinden yüksekokğretime kadar olan aşamalarda özümsermesi, gençleri mükemmel insanlar olarak yetiştirmeye hizmet eder. Özellikle öğretmen ve velilerin rol model olması bu konuda belirleyicidir. Ne de olsa insan nitelikleri sözlü değil pratik bir örnekle genç neslin bilincine yerlesir.

Anahtar Kelimeler: İnsan Erdemi, Kusursuz İnsan, Hadisler, Saadi Sheraziy, Alisher Navoi, Adalet, Dürüstlük, İnsan Düşüncesi, Konfürüüs, İnsanlık.

İlgili Yazar: Usman QOSIMOV

Jizzax DPU professori, filologiya fanları doktori, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Başvuru Tarihi/Received: 27.11.2024
Kabul Tarihi/Accepted: 10.03.2025

KIRISH

O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida **fazl**, **fazilat** so‘zlariga quyidagicha izoh berilgan: arabcha so‘z bo‘lib, afzallik, ijobiy xislatlar, yaxshi xulq, xususiyat degan ma’nolarni anglatadi. Ko‘p asrli tarixiy va ilmiy-adabiy manbalarda, ayniqsa, badiiy asarlarda inson fazilati va u bilan bog‘liq ma’naviy-ma’rifiy tushuncha - qadriyatlar va ularning falsafiy-estetik talqinlari yetakchi o‘rin tutishiga guvoh bo‘lamiz. Chunonchi, buyuk allomalarimizdan Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlarida inson qalbi, botiniy va zohiriy dunyosi va fazilat-xislatlari haqida izchil mushohada yuritilgan. Ayniqsa, Inson tafakkuri va kamolotida so‘zning favqulodda yuksak mavqeい, mas’uliyati va ahamiyati xususida ham chuqur fikr-mulohazalar bildirilgan. Jumladan, shoirning “Nazm ul-javohir” asarida ham so‘z tavsifi va uning inson hayoti va ma’naviy olamida nechog‘lik muhim o‘rin tutganligi o‘ziga xos poetik usulda bayon qilinadi. Alloh insonni barcha mavjudotlardan ziyoda tarzda siylab, unga so‘zlash, ya’ni nutq qobiliyatini ato qildi, ong berdi va qalbini injahissiyotlarga to‘ldirdi. Inson o‘z tafakkuri yordamida Yaratuvchisini tanidi, olamni idrok etdi, olamni va o‘z-o‘zini angladi, o‘zini topdi. Bu jarayonda ongida yuzaga kelgan fikrlar va ko‘nglida kechgan his-tyyg‘ularni u so‘z orqali ifoda etdi. Navoiy so‘z haqidagi falsafiy mushohadalarini mashhur ruboisiyidagi misralar bilan shunday asoslaydi:

*So ‘zdurki nishon berur o ‘lukka jondin,
So ‘zdurki berur jong ‘a xabar jonondin,
Insonni so ‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo ‘q ondin.*

So‘zning mo‘jizaviy sehri-qudrati va uning ”jon ozig‘i” ekanligi xalq maqollari va hikmatlarida ham hamisha ustuvor fazilat sifatida ta’kidlanib kelinadi. Dunyoda ikki narsaga o‘lim yo‘q: Dononing so‘zi, Botirning ishi mangu yashaydi. Yoxud Odam borki, odamlarning naqshidur, Odam borki, hayvon undan yaxshidur kabi naqlar ming yillar davomida tajribadan o‘tgan va sinalgan haqiqatdir. Alisher Navoiyning “Insonni so‘z ayladi judo hayvondin” degan misralarida ifodalangan yombi haqiqat ulug‘ shoirimizning til borasidagi ulkan faoliyati va qarashlariga tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Yuksak umuminsoniy va islomiy ma’rifat bilan yo‘g‘rilgan bu hikmat Navoiy zamonasida ham va bugun ham barcha shoir- yozuvchilar va ilm-fazl ahli uchun o‘ziga xos bir dasturilamal bo‘la oladi. Bu jihatdan O‘zbekiston Qahramoni, hassos shoirimiz Erkin Vohidovning quyidagi teran mushohadalarida ham Navoiy qarashlari bilan hamohanglik va mushtaraklik yaqqol ko‘zga tashlanadi: “Xoliqi olam odamzodga idrok va So‘z aytish ne’matini berib, uni barcha xilqatlaridan ustun yaratdi. Olamni idrok qil gan inson so‘zni idrok qiladi. So‘zni idrok qilib, olamni yanada teranroq idrok qiladi. So‘zning ildiziga yetgan kishi dunyoning tagiga yetgandek bahra topadi.

ASOSIY QISM

Insoniyat tarixi so‘zlar qismatida yashirinib yotar ekan”-deydi “So‘z latofati” nomli kitobida. Haqiqatan ham, til, millat, insoniyat tushunchalari jamiyat ma’naviy hayotining va har bir kishining bu olamdagi ijtimoiy mavqeini va uning tafakkur- salohiyati va insoniy kamolotini belgilovchi asosiy fazilatlar bo‘lib sanaladi. Buyuk shoir va mutafakkirlardan biri Boburning “So‘zimni o‘qub, bilgaysen o‘zumni” degan mashhur satri zamirida ham inson shaxsi va ma’naviyati, ruhiyati uning so‘zida aks etishi chuqr hayotiy bir haqiqat sifatida ta’kidlangan. Bunday fazilatlarning o‘q ildizi, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘zak- javhari, ya’ni chinakam insoniyligi uning o‘zgalarni o‘ylab yashashida va o‘y-fikri, niyatining pokligi, nekbinligida ayon bo‘ladi. Bu borada ham ulug‘ siymolarning hayotiy saboqlari bizga rahnamo bo‘la oladi. Masalan, mavlono Rumiy yoxud ”ma’no ahlining nuktapardozi” shayx Sa’diy va Alisher Navoiylarning ko‘plab ezgu g‘oya va hikmatlari bugun ham olam ahli uchun odamiylikning olijanob fazilati va yuksak axloqiy mezoni bo‘lib jaranglaydi:

*Tu gar mehnati digaron beg‘ami,
Nashoyadki nomat nihand odami.
(O‘zgalar haqida chekmaguchi g‘am,
Nechuk sanaladi qatori odam..) [01; 36]*

Ya’ni agar sen o‘zgalar mehnati, dard-tashvishiga beg‘am bo‘lsang, sening nomingni odam deb atab bo‘lmaydi. Shu o‘rinda hazrat Alisher Navoiyning millionlab komil insonlarning hayotiy maqsad va dasturi ifodalangan da’vatkor ona o‘gitlaridan birini yodga olaylik:

*Odami ersang, demagil odami,
Oniki, yo ‘q xalq g‘amidin g‘ami (“Hayrat ul-abror”) [02; 123]*

Jahon she’riyatining porloq sahifalariga aylangan bu hikmatlardagi ma’no va shakl mukammalligi va ham ohangligi tasodifiy emas. Ular Sa’diy va Navoiyning yuksak odamiylik va xalqparvarlik g‘oyalariga asoslangan maslak va orzularining mushtarakligidan dalolat berishi bilan ham e’tiborli. Ular insonlarning o‘zaro hamdard va g‘amxo‘r bo‘lishini nafaqat ezgulik va muruvvatning oliy bir namunasi deb, balki kishilik jamiyatining ma’naviy tayanch- ustunlari sifatida beqiyos qadrlagan. Navoiy satrlarida ma’nuning yanada kengligiga diqqat qilaylik: o‘zgalarning odamiylik darajasiga, fazilatlariga baho beruvchining o‘zi, avvalo, o‘zligini anglab, yuksak insoniy fazilatlar egasi bo‘lishi lozimligi zaruriy shart, talab sifatida ta’kidlangan.

Navoiy va Sa’diy ijodi va dunyoqarashining javhari bo‘lgan bu yuksak g‘oyalarning hayotiy va tarixiy ildizlari qanchalar chuqr va qadimiyligini va ularning bashariyatga daxldor mushtarak umuminsoniy qadriyat va fazilatlar ekanligini bundan 2,5 ming yillar avval yashab o‘tgan va kishilarni ezgulikka o‘rgatuvchi ulug‘ ta’limot yaratib, “**dono odamlarning eng donosi**”, deya ta’riflangan buyuk xitoy mutafakkiri **Konfutsiy** hikmatlari bilan muqoyasa qilinganda yanada kengroq tasavvur etish mumkin. Binobarin, Konfutsiy ta’limotining mag‘zi va uning umrboqiyligini ta’minlagan markaziy g‘oya - bu, eng avvalo, “**rahmdillik**” va

insonparvarlik kabi oljanob fazilat lar bo‘lganligi shubhasizdir. Konfutsiy ta’limotining gultoji- “**rahmdil**” kishi- insoniy komillik ning yorqin namunasi bo‘lib, unda barcha ezgu xislatlar: mehr-shafqat, o‘zgalarga hamdardlik, xokisorlik, sabr-qanoat va marhamatlilik, mustahkam e’tiqod va sadoqat, oq ko‘ngillik, to‘g‘riso‘zlik, ilmga ishtiyoqmandlik va so‘zu amal birligi kabi fazilatlar mujassam bo‘lmog‘i nazarda tutilgan deyish mumkin. [03;45] Shubhasiz, mazkur hikmatlarda tajassum topgan keng mazmun va g‘oyaviy-ruhiy yaqinlik, avvalo, bu ulug‘ mutafakkirlarning mustahkam e’tiqodi va gumanistik dunyoqarashidagi teranlik bilan, ular ijodida insondek zoti sharifning asl mohiyati g‘oyat chuqur, orifona talqin etilganligi bilan izohlansa, to‘g‘ri bo‘ladi. Bu mushtarak ezgu g‘oyalar va oljanob insoniy fazilatlar bizning kunlarimizda ham mashhur adiblar tomonidan muqaddas qadriyatlar sifatida e’tirof yetilib, e’zozlanmoqda. Chunonchi, XX asrning betakror shoirlaridan biri, Ikkinchiji jahon urushi qahramoni, bolqor elining vijdoni bo‘lmish Qaysin Quliev o‘zgalarga g‘amdochlik, o‘zgalar hayoti va taqdiriga mas’ullikni chinakam insoniylikning zaruriy sharti, tengsiz fazilati va kishilar o‘rtasidagi og‘alarcha mehr-oqibatning ko‘rkam bir namunasi sifatida ulug‘laydi. Tasavvurimiz kengroq bo‘lsin uchun ushbu she’riy parchani ikki tilda- rus va o‘zbek tilida keltirish ma’qul ko‘rindi:

..Ти мне брат, ты любимее брата,

Если груд твою давят и жжет

Бол за вчех, кто ушёл без возврата

И тревога за вчех, кто живёт! (Perevod N.Grebneva)

Sen menga inisan, a’lo undan ham,

Bag‘ringni ezolsa bir hasrat, bir un.

Ketganlar uchun gar cheka olsang g‘am,

Mas’ul yashay olsang qolganlar uchun (A.Oripov tarjimasi) [04.123]

Insoniy yashashning maqsad-mohiyati haqida jiddiy o‘yga toldiruvchi bunday yorqin misollarni o‘tmishdan va hozirda yashab ijod etayotgan yetuk adiblar ijodidan ko‘plab keltirish mumkin. Badiiyat va ma’naviyat olamining silsilasidagi an’anaviylik va bardavomlik ifodasi bo‘lgan bu yakdillik Sa’diy va Navoiylar tomonidan tarannum etilgan yuksak umuminsoniy g‘oya -aqidalarning hayotiy ildizlari ezgulik ulug‘langan eng qadimiy “Avesto”, muborak Hadislar va xalq naqllari kabi mazmunan teran va umrboqiy ekanligini namoyon etadi. y va Navoiy ijodidagi ruhan yaqinlik va ijodiy an’anaviylikni odamzod tabiatini, xususan, badxulq kimsalarga xos nomarg‘ub xislatlarning ijtimoiy muhit bilan bog‘liqligi kabi dolzarb muammolarga donishmandona munosabatlarida hamda ularni chuqur ifodalovchi majoziy-ramziy timsollarida ham ko‘rish mumkin. Jumladan, Sa’diy insoniy fazilatlarni unutgan ayrim manfur kimsalar tabiatida ildiz otib ketgan illatlarni qoralar ekan, ularga ta’lim-tarbiya ham zoe ketishidan ogoh etadi:

*Nokas bo tarbiyat nashavad, ey hakim, kas,
 Dar bog‘ lola ruyad va dar sho‘ra xoru xas.
 (Odam qilib bo‘lmas kim esa nokas,
 Bog‘da lola unar, sho‘rxok yerdan xas. [05;78]*

Ya’ni ey oqil murabbiy, maxluqtabiat nokasni (kas-forscha so‘zning ma’nosi kishi) solih inson qilaman deb, behuda urinib, aziyat chekma, chunki unumdar zamindagi bog‘da gulu lola yashnaganidek, yantog‘u sho‘razorda faqat tikan bilan xas-xashak bitadi. Inson tiynatining murakkabligi va u azaldan jibilliy fe‘l-atvori bilan bir-biridan tubdan farqlanishini falsafiy teranlik bilan yorituvchi bunday hayotiy va ta’sirchan hikmatlar Navoiy ijodida yanada ustuvor mavqega ega. Bu hol, albatta, shoirning beqiyos badiiy-estetik tafakkuri, iste’dod yo‘nalishi va yoniq qalb tug‘yoni bilan birga u yashagan g‘addor zamon va ziddiyatli muhit bilan ham bevosita bog‘liqdir:

*Nokasu nojins avlodin kishi bo‘lsun debon,
 Chekma mehnat, yaxshi bo‘lmas kasofat olami.
 Kim kuchuk birla xutukka qancha qilsang tarbiyat,
 It bo‘lur, dag‘i eshak, bo‘lmaslar aslo odami.
 Chunki: Garchi quyoshdin parvarish olam yuziga teng erur,
 Sahroda qamg‘og‘u tikan, bo‘stonda sarvu gul bitar*

Ya’ni quyosh butun olamga baravar nur sochsa ham, sahroda yantog‘u tikan, bo‘stonda sarvu gul bitadi. Binobarin, bunday hamfikrlilik, eng avvalo, Sa’diy va Navoiyning inson va tabiat haqidagi sharqona tafakkuri, milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan ijtimoiy-estetik va axloqiy qarashlarining uyg‘unligi hamda ularga xos bo‘lgan ulug‘vor maqsad va g‘oyaviy-badiiy niyatning xalqona bir ifodasi hamdir. She’rlar zamiridagi hayotiy tajriba-saboq, kuchli mantiq va keskin g‘oyaviy hamohanglik buyuk mutafakkirlarning qat’iy bir xulosasi, ya’ni razil va tuban kimsalar xususidagi chuqur falsafiy mushohadalari qalblarni junbushga keltiradi. Ayni paytda, bunday jirkanch shaxs va illatlar hamisha “El-ulus baloyi joni” ekanligini chuqur badiiy tahlil va talqin asosida fosh etish mahorati jahon adabiyoti va ijtimoiy-tanqidiy tafakkur rivojiga ham munosib hissa bo‘lib qo‘silishi shubhasizdir. Zotan,

*Yuz jafo qilsa menga, bir qatla faryod aylamon,
 Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram,-*

degan hayotiy dasturiga izchil amal qilgan Navoiy xalqqa sitam yetkazgan zolim va razil shaxslarga qarshi o‘zining butun ijodi va faoliyati bilan mardona kurashganligi o‘ziga xos bir jasorat namunasi edi. Binobarin, turli davrlarda yashagan Konfutsiy va Rumiy, Sa’diy va Navoiylar bashoratgo‘y mutafakkirlar sifatida hamisha kishilik jamiyatini mukammallashtiruvchi ilg‘or umuminsoniy g‘oya va fazilatlarni kuylagan va bani

basharning dardu-tashvishi va og‘riqli haqiqatlarini teran idrok etib, ularni hayotiy, ta’sirchan obrazlar va g‘aroyib tashbehlar orqali san’atkorona ifoda etganlar. Mana shunday yuksak insoniy fazilatlar va ezgulikka chorlovchi ma’naviy-ruhiy va g‘oya-aqida lar ular ijodining umumbashariy mazmun-mohiyatini yanada chuqurlashtiriv, jamiyat rivojiga xizmat qiladi.

Komil inson fazilatlaridan biri- bu rostgo‘ylik, xushmuomalalik, shirinsuxanlik. Ya’ni yumshoqko‘ngillik va xushmuomalalikning asosiy bir sharti shirinso‘zlilik va samimiylikdir. Bu jihatdan ham Navoiy kabi mutafakkirlarimizning o‘gitlari qimmatlidir. “So‘z va iboradan maqsad ma’nodir” deb bilgan Navoiyning ushbu ilmiy-nazariy fikri qanchalar asosli ekanligiga birgina ruboiy misolida ham ishonch hosil qilishimiz mumkin:

*Xub el bila suhbat tutubon, xub o ‘lg‘il,
Yaxshini talab qilg‘ilu matlub o ‘lg‘il.
Shirin so ‘z ila xalqqa marg‘ub o ‘lg‘il,
Yumshoq de hadisingniyu mahbub o ‘lg‘il.*

Tomchida quyosh aks etganidek, Navoiyng hamisha insonlarni komillikka boshlashdek oljanob maqsadi va chuqur hayotiy g‘oya-fikrlarni go‘zal shaklda ifodalash san’ati ushbu muxtasar she’rida ham yaqqol namoyon. Jumladan, mazkur ruboiyda ilgari surilgan ezgu g‘oya va yuksak insoniylik, eng avvalo, kitobxonni hayotga va o‘ziga nisbatan mas’uliyat bilan qarashga o‘rgatadi. She’r matnidagi barcha so‘zlar ma’nodor va ohangdorligi bilan uning ta’sirchan ligini oshiradi. So‘zni malham deb bilgan Navoiy mazkur ruboiy matnida targ‘ib etgan muhim haqiqat, ya’ni xushmuomala va shirinso‘zlik insonlar uchun qanchalar qimmatli fazilat – yaxshi xulq va ezgu amal ekanligini turkiy xalqlarning yana bir buyuk siyoshi Maxtumquli ham ko‘p bora ta’kidlaganligi ibratli holdir:

*Agar bo ‘lsang ipak kabi muloyim,
Muloyim sen bo ‘lsang, quling bo ‘loyin.
Qulog ‘imga bergen panding oloyin,
Kishiga qattiq so ‘z aytuvchi bo ‘lma.*

Darhaqiqat, shirinso‘zlik, halimlik, oqko‘ngillik yuksak insoniy fazilatlar singari qanchalik qadrlansa, dag‘also‘zlik, dilozorlik barcha davrlarda yomon bir illat sifatida qoralangan. Zero, dilozorlik, ya’ni inson ko‘ngliga ozor berish ka’bani vayron qilish, Qur’onni o‘tda yoqishdan ko‘ra ham og‘ir gunoh sanalgan. Donishmandlar aytganidek, birov topib so‘zlaydi, birov qopib. Fozil kishi tilidan bol tomadi va aksincha, xudbin, baxil, tuban kimsalarning tili zaharga mengzaladi. Tig‘ yarasi bitar, dil yarasi bitmas. Bug‘doy uning bo‘lmasa ham, budoy so‘zing bo‘lsin. Bunday hikmatlarning umrboqiyligi siri ham shundaki, ularda buyuk ajodolarimizning ulkan hayotiy tajriba va o‘gitlari mujassamlashganidir. Yetuk Insonning yana bir fazilati

uning so‘zi qisqa va ma’nodor bo‘lishidir. Shu bois mutafak kirlar ko‘pso‘zlilikni ezmalik-laqmalik deb qoralashgan. Shu munosabat bilan atoqli adibimiz Abdulla Qahhorning ayrim saboqlarini keltirib o‘tish ortiqcha bo‘lmaydi.

XULOSA

Zamondoshlarining guvohlik berishlaricha, Abdulla Qahhorning asarlari kabi nutqi ham ma’nodorligi, xalqchilligi va o‘zbekona hazil-mutoyibalarga boyligi va jozibadorligi bilan ham hamisha tinglovchilarga manzur bo‘lar va ularning xotiralarida unutilmas taassurot qoldi rar ekan. Bejiz emaski, adib tili va tafakkuridagi bu fazilatni birinchilardan bo‘lib qadrla gan Hamid Olimjon 1940 yillardayoq faxr bilan e’tirof etgan: ”Bizning yozuvchilarimiz orasida Abdulla Qahhor qadar boy va chiroyli til egasi yo‘q”. So‘z zargari deb tan olingen Abdulla Qahhorning xat va yozishmalarida ham ana shunday o‘ziga xos fazilatlar yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Chunonchi, ustoz adibimining xatlarida yosh satirik yozuvchi Anvar Muqimovning ijodiy yutug‘i, jumladan, hikoyasida “katta bir ijtimoiy illatni tangaday joyda ifodalay olganini” e’tirof etsa, [06; 45] keyingisida “Tariqday ma’no bir paqir suvning ichida suzib yuribdi” deya, asar mazmunan sayozligini ko‘rsatadi. Adibning xalqona so‘z-iboralarga boy bo‘lgan maktublari ham so‘z qo‘llash va til mahorati jihatidan bir fazilat bo‘lib,barcha yoshlarimiz uchun ham zarur saboq bo‘lishi bilan dolzARB ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga bunday fazilatdan mahrum bo‘lgan va ting lovchilar qalbiga ta’sir etmaydigan sovuq va zerikarli va’zxonlikni Abdulla Qahhor “o‘lik nutq” deb keskin tanqid ham qilgan. Odamlar bor, halol mehnat bilan o‘zini ko‘rsatgani erinadi-yu, olamda borligini ma’lum qilib turish uchun ko‘proq gapishtiga zo‘r beradi:majlis-pajlisda so‘z tegib qolsa, foydali biron fikr aytish uchun emas, gapisht, faqat gapisht uchun gapiradi. bu xildagi odamlar, tekin qulq topilsa, bitta eski do‘ppi to‘g‘risida sakkiz soat suv ichmasdan gapiradi. Odamlar esnaydi, mudraydi, majlis raisiga ho‘mrayib qaraydi... Bu o‘lik nutqning bir xili “hayotimizda hali ham uchrab turadigan –“gapni chaynab, o‘ziga insofi, eshituvchiga rahmi kelmagan nutqbozlar” [07;78] afsuski, oz emas. Ammo donolar o‘giti yana saboq va fazilat:Til chiqishi, so‘zlash uchun ikki yosh kifoya. Qachon so‘zlash va qachon sukut saqlash uchun esa oltmis yosh ham kamlik qiladi.[08;97].

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- A.Navoiy. Hayrat ul-abror 1998-yil. 123-bet.
- Abdulla Oripov tarjimasi. Saylanma. 2002.
- Anvar Muqimov To‘plam. 2006. 45-bet.
- Konfutsiy. Muhokama va bayon. Toshkent. 2013.
- M.Shayxzoda. To‘plam. 1970.
- R.Hamzatov. Asarlar. 1995.
- Sa’diy. Guliston. Toshkent. 1968-yil 36-bet.
- Sh.Shomuhamedov tarjimasi. To‘plam. Toshkent. 1999.